

VETERINARIYA YO‘NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING METODIK YONDASHUVNING MAZMUN-MOHİYATI

Kenjaboev Shokir Abdulxalimovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi mudiri dotsenti.

E-mail: shokir29111962@mail.ru. tel: +998915865962

Аннотация: Мақолада Республикамизнинг дунё ҳамжамиятига интеграциялашувида хорижий тилларни мукамал ва пухта эгаллаган етук мутахассис кадрларни тайёрлаш вазифалари ва унинг аҳамияти баён этилган.

Калит сўзлар: ахборот-коммуникация технологиялари, Ижтимоий медиадан фойдаланиш, замонавий таълим технологиялари, интеграция, ветеринария атамалари.

Аннотация: В статье описаны задачи и значение подготовки высококвалифицированных специалистов, владеющих иностранными языками в интеграции нашей республики в мировое сообщество.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, использование социальных сетей, современные технологии обучения, интеграция, ветеринарные термины.

Annotation: The article describes the tasks and importance of training highly qualified specialists who speak foreign languages in the integration of our republic into the world community.

Keywords: information and communication technologies, social media use, modern training technologies, integration, Veterinary Terms.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi ilmiy salohiyati o'sib, turli mamlakatlar bilan xalqaro aloqalari kengayib, mustahkamlanib borayotgani barqaror taraqqiyotimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ilm-fan rivojlanishini faol xalqaro tajribalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunda esa, xorijiy tillarni bilish, muloqot qilish muhim o'rin tutadi. Dunyo amaliyotida xorijiy tillar bo'yicha kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda til ta'limiga integrativ yondashuv, integrativ o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga o'zgacha e'tibor qaratilmoqda.

E'tirof etish kerak-ki, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi ta'lim tizimining oldiga xorijiy tillarni mukammal va puxta egallagan kuchli mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifalarini qo'ydi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda xorijiy tillarda kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikalarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va chet tillarni puxta o‘zlashtirgan turli soha mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu metodlar asosida mavjud texnologiyalarni tanlash va retseptiv, reproduktiv, produktiv mashqlarni ishlab chiqish, ilmiy asoslangan tavsiyalarga muvofiq ingliz tilini o‘qitishning samarali usul va metodlarini takomillashtirish bilan bog‘liq. Amaliy ahamiyati esa, veterinariya yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilini o‘qitishda olimlarning ilmiy meroslaridan foydalanib, anatomiya faniga oid virtual laboratoriya shaklida hayvonlar tuzilishini ingliz tilida tushunish imkoni yaratilgan va o‘rganilgan;

veterinariya yo‘nalishidagi talabalarga veterinariya meditsinasi va boshqa biologik fanlarni o‘qitishda ingliz tilining lug‘atlarni takomillashtirish asosida ularning bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlari ishlab chiqilgan;

veterinariya yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilini o‘qitish jarayonida sohani o‘rganishda oid atamalardan foydalanish va qo‘llash usullari ishlab chiqilgan;

ingliz tilini o‘rganish metodikasi asosida veterinariya yo‘nalishidagi talabalarni kasbga (veterinariya meditsinasida biologiya, zoologiya, anatomiya, kimyo fanlari) yo‘naltirish bo‘yicha bilish, tushunish va qo‘llash kabi interfaol ta‘lim texnologiyalariga asoslangan metodlar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishi asosida yaratilgan **“English for veterinary medical students”** nomli o‘quv qo‘llanmasidagi ingliz manbalaridan olingan va texnikum talabalarining bilim saviyasiga moslashtirilgan veterinariya meditsinasiga oid terminlar-lug‘atlar kimyo, biologiya, ingliz tili, fiziologiya va boshqa mavzularga oid matnlar, mashqlar texnikum talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilgan va elektron shaklda yaratilgan.

Bilim va ilmning shakllanishi esa, bevosita ta‘lim tizimiga borib taqaladi. Ta‘lim tizimi samaradorligini o‘qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o‘quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta‘limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta‘minlab beradi. Demak, ilg‘or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talabalariga muvofiq raqobatbardoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassis kadrlarni yetishtirish o‘quv dargohlarida yo‘lga qo‘yilgan ta‘lim berish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Umumiy tavsifiy ta‘limning rivojlanishi hozirgi vaqtda bir qator ijtimoiy-madaniy omillarning (globallashtirish, axborotlashtirish, raqamlashtirish va boshqalar) ta‘siri bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning faoliyat salohiyatini kengaytirish yo‘nalishini izlashni dolzarblashtiradi. Bugungi kunda veterinariya yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv omillari majburiy mutaxassilik fanlarini o‘qitish metodologiyasida quyidagi yo‘nalishlar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- “Ingliz tilini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv modeli va uning mazmuni va mohiyati” modeli talabalarning dinamik o‘zgarishlarga ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, turli xil ma’lumotlar oqimida ob’ekt modelini yaratish, til bilish qobiliyati bilan yangi turlari va shakllarini rivojlantirish;

Qisqacha tavsifi: o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy pedagogik masalalarni hal etishda va notanish vaziyatlarda qo‘llay olish. Mazkur standartlar ham umumlashgan mazmundagi amaliy tatbiq standartlardan iborat bo‘lib, ular talabalarning quyidagi aqliy faoliyati sohalarini qamrab oladi:

- mulohaza yuritish;
- mutaxassislikka oid fikrni ingliz tilida asoslash, isbotlash yoki o‘zgalar fikriga munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirish;
- modellashtirish - modulli topshiriqlardan foydalanish muammolarni mantn, nutq, dialog va monolog ko‘rinishlarda ifodalash, ularning modelini qurish;
- muammoni yeshish;
- mutaxassislikka oid atamalarni ingliz tilida qo‘llab muammoni hal qilish;
- muloqot qilish - mutaxassislikka oid tushuncha, belgi va timsollar asosida tarjima tilida o‘zaro muloqot qilish;
- ma’lumotlar bilan ishlash;
- mutaxassislikka oid ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va turli shakllarda tasvirlash.
- fazoviy tasavvur ;
- erkin fikrlash madaniyatini rivojlantirishga e’tibor qaratish talabalarning muloqoti, xatti-harakati va faoliyati;
- vaziyatlar bilan bog‘liq amaliyotga yo‘naltirilgan komponentni mustahkamlash bilim va ko‘nikmalarni o‘quv vaziyatlari doirasidan tashqarida qo‘llash va talabalarning funksional savodxonligini rivojlantirishga ko‘maklashish;

Veterinariya yo‘nalishida ingliz tili mashg‘ulotlari jarayonida talabalar faoliyatining mazmunini kengaytirish va geografik makon bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, kelajak hayoti uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish vujudga keladi.

Ta’lim deganda “talabani tavsifiy madaniyat bilan tanishtirish uchun maxsus tashkil etilgan shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat - geomakonni bilish, rivojlantirish va o‘zgartirish bilan bog‘liq ijtimoiy madaniyat turi” tushuniladi. Tadqiqot modeli mazmuni shuni ko‘rsatadiki, shaxsning tavsifiy madaniyatining faol tomoni uning mutaxassislikka kasbiy tayyorgarlik tajribasi bilan belgilanadi, bu esa, funksional kasbiy savodxonlik bilan bog‘lanishga olib keladi.

Har bir talaba o‘z-o‘ziga tanitish, qiziqishlarini aniqlash, qobiliyatini rivojlantirish ularda erkin fikrlash madaniyati bilan bevosita bog‘liqdir. Albatta bunda har bir o‘qituvchi o‘z talabalarida mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrlarini yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirish, turli vaziyatlarda o‘z-o‘ziga tanqidiy

yondoshish va vaziyatni tanqidiy baholash, haqiqatni aniqlash va unga intilish xususiyatlarini rivojlantirish muhimdir.

Ko‘zlangan auditoriya va maqsad binoan mazkur modul turli auditoriya vakillariga mo‘ljallangan bo‘lib, katta yoshdagi ingliz tili o‘qituvchilari, baholovchilari, o‘quv dasturlari va resurslarni ishlab chiquvchilar, test tuzuvchilari va ta’lim sohasi vakillarini qamrab oladi. Ayni damda bu standart talabalar, o‘qituvchilar va baholovchilar, shuningdek, keng jamoatchilik uchun bir nechta asosiy maqsadlarni belgilaydi.

O‘qituvchilar uchun: Mazkur standart o‘qituvchilar uchun til o‘rganishni rejalashtirish hamda dars va mashg‘ulotlarni tashkillashtirish, shuningdek, dars ishlanmalar yaratishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalar uchun: bu standart talabalarga til o‘rganishni rejalashtirish, maqsadlarni belgilash yoki moslashish va rivojlanishni nazorat qilish uchun asos yaratadi. Kommunikativ til qobiliyatini tavsiflovchi milliy standart sifatida, ushbu dastur talabalarning ma’lumotlarni tushunishini osonlashtirishi mumkin, bu sinflar, dasturlar va muassasalar o‘rtasida uzluksiz o‘tishga imkon beradi.

Baholovchilar uchun: bu hujjat chet tilini o‘rganuvchilarni XXI asr ko‘nikmalari asosida tinglab-tushunish (listening), o‘qish (reading), yozish (writing), gapirish (speaking) va integral ko‘nikmalarni (integrated skills) qay darajada egallaganliklarini tekshirish uchun asos bo‘la oladi. Ishlab chiqilgan talabalar asosida talabalarning chet tilidan egallagan bilim darajalarini (A1, A2, A2+, B1 yoki B1+) aniqlab beradi.

O‘quv dasturlari va resurslarni ishlab chiquvchilar uchun: bu hujjat talabalarga til o‘rganishni rejalashtirish, maqsadlarni belgilash yoki moslashish va rivojlanishni nazorat qilish, XXI asr ko‘nikmalari asosida tinglab-tushunish (listening), o‘qish (reading), yozish (writing), gapirish (speaking) va ularni integratsiya qilish (integrated skills)da ko‘nikmalar hosil qilishda yordam beruvchi hamda yuqorida sanab o‘tilgan ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradigan o‘quv materiallarini yaratishda yo‘lboshchi bo‘ladi.

Test tuzuvchilari uchun: ushbu standartda keltirilgan ko‘nikmalar (“can do statements”) asosida talabalarning til bilish darajasini aniqlashga yordam beruvchi test to‘plamlarini yaratishga, yaratilgan testlar orqali shu ko‘nikmalarni to‘g‘ri o‘zlashtirishga yo‘naltirish imkonini beradi. Veterinariya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ingliz tilini o‘qitishda talabalar fikrlash madaniyatini shakllantirish ingliz tili ta’limi jarayonida zamonaviy dars turlari keng qamrovli bo‘lib, mazmun va shakliga nisbatan har bir talabaning bilim haqidagi fikrlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda talaba shaxsining ta’lim olish ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondirishga o‘rgatuvchi usullar majmui sifatida amalga oshirilmoqda. Darsda asosiy e’tibor o‘qituvchi faoliyatidan talaba faoliyatiga, (ularning ta’lim olish jarayoniga) ya’ni, o‘qituvchi o‘zi darsni boshlab o‘zi tugatishi

emas balki bilim olish yo‘lini talabaga ko‘rsatishi, unga erishishda hamkor bo‘lishi lozim.

Zamonaviy darsga qo‘yiladigan talablar bu: tarbiyaviy, psixologik, gigienik, didaktik talablar bo‘lib o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq, uzviy ravishda amalga oshirilishi o‘z samarasini beradi. Veterinariya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ingliz tili darslariga qo‘yiladigan didaktik talablarda talabalarning mustaqil fikr yuritishi, axloqiy sifatleri, olgan bilimni hayot bilan bog‘lay olishi, Vatanni, uning tarixi, madaniyati, urf-odatleri, eng asosiysi insonni hurmat qilishi, ilmiy dunyoqarashi, estetik didi, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy madaniyatni shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi kerak. Darsga qo‘yiladigan psixologik talablarda esa talabalarning (shaxsiy-ruhiy) individual-psixologik xususiyatlarini bilgan holda ularda xotira, ongli idrok etish, mustahkam irodani, tasavvur qila olishni, mavhum hodisalarni fikrlay olishni, davlat ta‘lim standartleri asosida yosh xususiyatlariga xos ravishda bilim olishdan iboratdir.

Veterinariya sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayoni mashg‘ulotlar gigienik talablarda auditoriyadagi havo harorati, uning tozaligi, estetik did bilan jihozlanganligi inobatga olinadi. Veterinariya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ingliz tilini o‘qitishda didaktik talablar eng ko‘p muhim tarbiyaviy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ya‘ni, darsning ta‘limiy-tarbiyaviy maqsadini aniq belgilash (prognozlash – bizning fikrimiz), darsning qiziqarli tashkil etish uchun hayotiy va ilmiy faktlar bilan boyitilganligi, talabalarning o‘zlashtirishlari uchun erkin muhit va sharoit yaratish asosida darslarni o‘zlashtirishlariga erishish, darsning bayon qismida oddiydan murakkabga qarab borish, dars mazmuniga mos usul va uslublarni tanlay bilish, mos keladigan ta‘lim vositalarini tanlash, darsni boshqa fanlar bilan bog‘liqligini ta‘minlash, talabalar bilimni baholashda xolislikka erishish va hokazo. Veterinariya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ingliz tili dars mashg‘ulotlarida talabalarda erkin fikrlash madaniyatini shakllantirish uning asosini tashkil etadi. Bunda:

- talabalar bilim doirasi va tafakkuri hamda dunyoqarashini kengaytirish;
- talabalarni ilmiy, ilmiy-ommabop risolalar, matnlar singari xorijiy adabiyotlar bilan ishlashda tanqidiy tahlil qilish, sintezlash, xulosalash, hayotida qo‘llash va baholash orqali bilim olish va fanga qiziqishini orttirish (kognistik motivatsiyani yuzaga keltirish orqali);
- o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi vaziyatda qo‘llay olish;
- yangi bilimlarga intiluvshanlikni tarbiyalash;
- o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Veterinariya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ingliz tilini o‘qitishda mutaxassislik terminlarini izohli shakllantirishda muammoli, munozarali darslarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun o‘qituvchi

talabalarning mashg‘ulotlarga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishlari, ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va yordam, fikr-mulohazalarini to‘liq bayon qilish, mantiqiy dalil, xolislik, boshqalar fikrini sabot va shidam bilan tinglash ko‘nikmalarini hosil qilish kabilarnitashkil etishi va boshqarish lozim.

Shuningdek, veterinariya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ingliz tilini o‘qitishda o‘qituvchi talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishda turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish va muhofaza qilishda asosiy o‘rinni egallaydi. Bunda o‘qituvchi pedagogik, tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirishi va iqtidorli talaba-yoshlar bilan ishlash mexanizmi, tarbiya jarayonining xususiyatlarini, ularning mustaqil faoliyat turlarini o‘rganish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, har bir mashg‘ulotni metodik jihatdan ta‘minlashning asosini tashkil etadi. Chunki, takomillashgan pedagogik yoki psixologik uslubni qo‘llash o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Talabalarda ingliz tili darslarida erkin fikrlash madaniyatini shakllantirishda tarbiya jarayoniga alohida munosabat bilan yondoshishni talab qiladi. Chunki unda talaba shaxsining shakllanishiga – jamiyatda qabul qilingan axloq normalari, ma‘naviy-ma‘rifiy qadriyatlarni singdirish texnologiyalarini yaratish ijobiy natijalarni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Chunki, til bilish va uning asosida qabul qilingan qonunlarni bevosita o‘zaro tabiiy uyg‘unlik asosida o‘rganish talabalarda “Latin in English”, “English grammar for students of Latin” darsliklardan olingan bilimlarining yanada chuqurroq, mukammalroq bo‘lishiga asos bo‘ladi. Talabalarda ta‘limga nisbatan qadriyat sifatida hurmatda bo‘lish, o‘z huquqlaridan to‘g‘ri foydalanish, burshlarini halol va vijdonan bajarish his-tuyg‘ularining tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Ishlanmalarda ma‘lum fanlarning didaktik imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Ana shu dastur talablaridan kelib chiqib masalan, lingvodidaktika fanlarini o‘qitish asosida talabalar huquqiy savodxonligi va madaniyatini kengaytirishga qaratilgan respublika miqyosida o‘tkaziladigan “Siz tilni bilasizmi?” ko‘rik tanlovlarga tayorlanishlarida Bosh Qomusimiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etgan inson erkinligi va erkin fikrlash huquqining aks etishi yoshlarimiz tarbiyasidagi ahamiyati, shu fan doirasida qo‘shimcha ravishda bolalar huquqiga bag‘ishlangan Xalqaro Konvensiya materiallaridan samarali foydalanish uchun ijodiy yondashildi.

To‘plangan tajribaga asoslanib umumta‘lim fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarda erkin fikrlash madaniyatini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalandik.

Oliy va professional ta‘lim muassalari talabalarida erkin fikrlash madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchining ma‘naviyati, bilimlari saviyasining yuqori darajada

bo‘lishi nihoyatda muhimdir. Mazkur jarayonning sifatli va mazmunli tashkil etilishida nazoratini ta‘minlashda birinchi galda o‘quv muassasasi rahbarlari, ma‘naviyat va ma‘rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, uslubiyotshi, o‘qituvchilar mas‘uliyatini oshirish lozim. Agar pedagog rahbarlar va xodimlar bu masalaga chuqur yondashmaydigan bo‘lsa birgina o‘qituvchining mehnatining o‘zi yetarli bo‘lmaydi.

Demak, bundan **xulosa** chiqadiki, erkin fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasi keng qamrovli, ko‘lami jihatidan ko‘pgina fanlar va tegishli mavzularni o‘z ichiga oladigan, fanlar doirasida maqsadli yondashuv, tizimlilikni, tadbirlar ijrosida uzluksizlikni, innovatsiyani, ilmiylikni, fanlar integratsiyasini, muntazamlikni talab qiluvchi jarayondir. Shu maqsadlardan kelib chiqib erkin fikrlash madaniyatini shakllantirish modeli ishlab chiqildi

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabalar ingliz tilida erkin fikrlash madaniyatini shakllantirish modelida model asosida veterinariya yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassalari talabalarida erkin fikrlash madaniyatini shakllantirishda kabi ta‘lim mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejalariga kiritilgan umumta‘lim fanlarining maqsadga muvofiq turlari va mos bo‘lim hamda mavzular saralab olindi.

Ingliz tilini o‘rganish asnosida talabalarda umuminsoniy qadriyatlar, atrofni va jamiyatni tahlil qilish ko‘nikmasi, raqobatlasha olishga ishonch, madaniyatlar va an‘analarga hurmat hissi, ijodkorlik, yaratuvshanlik va muammoli vaziyatlarda o‘ziga ishonch hamda o‘z yurti, xalqi va tarixi bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantiradi. Shu sababli, yurtimiz ta‘lim tizimi G‘arb va Sharq tillari o‘qitilishiga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Ingliz tili darslarida raqamli texnologiyani tadqiqot qilish, aniqlangan ma‘lumotlarni yig‘ish, ularning qay darajada ishonchliligini aniqlash va uni yetkazish, mualliflik huquqiga ega bo‘lgan ma‘lumotlarni filtrlay olishga oid zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish tadqiqotimiz moduli mazmunini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruxxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. " Xalq so‘zi" 2020 yil 23-sentabr

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PF-5712-son. 2019 yil 29 aprel.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi to‘g‘risida 2018 yil 27 iyundagi Farmoni.//Xalq so‘zi.28.06.2018 yil .

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 23 avgust kuni xalq ta‘limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma‘naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. «Xalq so‘zi» gazetasi, № 174 (7373), 24.08.2019.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. –T., Ma’naviyat,2008,-176 b
6. Axliddinov R.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida). Ped.fan.dok. ...diss. – T., 2002. -338-b.
7. Antonova Ye.S. Metody podgotovki po russkomu yazyku: kommunikativno deyatelnostnyy podxod. - M.: KNORUS, 2007. - 464 s.[1]
8. Bałyksina T.M. Metod prepodavaniya russkogo yazyka kak nerodnogo (novogo): Uchebnoe posobie. - 2-ye izd., ispr. — M.: RUDN, 2010. —188 s.[2]
9. Bepalko V. P. Pedagogika i progressivnyye texnologii obucheniya. – M.: Izd-vo Instituta professionalnogo obrazovaniya Ministerstva obrazovaniya Rossii, 1995.
10. Zimnyaya, I. A. Klyuchevyye kompetensii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya . Vysshee obrazovanie segodnya. - 2003. - № 5. - S. 36- 45.
11. Polat E.S. Novyye pedagogicheskie i informatsionnyye texnologii v obraz obrazovaniya . -M.: Izdat. sentr "Akademiya",2002. - 272 s
12. Kovaleva A.G. Obuchenie inostrannomu yazyku v usloviyax informatsionno-kommunikatsionnoy professionalno obrazovatelnoy sredy. Materialy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii prepodavateley, aspirantov i studentov, 19-20 aprelya 2018 goda. — Yekaterinburg: Izdatelstvo UMS-UPI, 2018. — S. 57–62
13. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
14. Xudayqulov X.J. Zamonaviy pedagogik texnologiya ia’lim samaradorlik asosidir.-T.: Dzayin-Press.2011 y.